



SYNONYMS IN THE WORKS OF BOBUR

Nabiyeva Parvina

2nd year doctoral student of the Alisher Navoi Tashkent State
University of Uzbek language and literature
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15577096>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025
Accepted: 30th May 2025
Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Babur's works, synonyms,
skill, linguistic analysis,
Turkic synonyms,
borrowed synonyms.

ABSTRACT

This article conducts linguistic analysis of synonyms used in the works of Babur. It should be noted that in the works of the creator, in particular, ghazals, ruboiy, and especially in the work "Boburnoma", there are unique forms of synonyms. This is judged by the possibility of using existing synonyms in the Uzbek language created by Babur. The fact that the synonymous forms used by Babur are directly composed of Turkic lexemes or form a synonymous series with other languages – such as Arabic, Persian - is evidence of the unique skill of the creator in choosing words.

СИНОНИМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ БОБУРА

Набиева Парвина

Докторант 2-го курса Ташкентского государственного университета узбекского языка
и литературы имени Алишера Навои
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15577096>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025
Accepted: 30th May 2025
Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Творчество Бабура,
синонимы, мастерство,
лингвистический
анализ, тюркские
синонимы,
заимствованные
синонимы.

ABSTRACT

В статье проводится лингвистический анализ синонимов, используемых в произведениях Бабура. Следует отметить, что в творческих произведениях, в частности, в газелях, рубаях и особенно в «Бабур-наме», содержатся своеобразные формы синонимов. При этом оценивается возможность использования существующих в узбекском языке синонимов, созданных Бабуром. Тот факт, что синонимичные формы, используемые Бабуром, напрямую составлены из тюркских лексем или образуют синонимический ряд с другими языками — такой как арабским, персидским, — свидетельствует об уникальном мастерстве автора в подборе слов.

BOBUR ASARLARIDA SINONIMLAR

Nabiyeva Parvina

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2-kurs tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15577096>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025
Accepted: 30th May 2025
Online: 31st May 2025

ABSTRACT

Ushbu maqolada Bobur asarlarida qo'llangan sinonimlar yuzasidan lingvistik tahlillar olib boriladi. Qayd etish lozimki,



KEYWORDS

Bobur asarlari,
sinonimlar, mahorat,
lingvistik tahlil, turkiy
sinonimlar, o'zlashma
sinonimlar.

ijodkor asarlarida, xususan, g'azal, ruboiy va, ayniqsa, "Boburnoma" asarida sinonimlarning o'ziga xos shakllari o'rin olgan. Bu esa Bobur ijod qilgan o'zbek tilidagi mavjud ma'nodosh so'zlarni qo'llash imkoniyati bilan baholanadi. Bobur tomonidan qo'llangan sinonimik shakllari bevosita aynan turkiy leksemalardan tashkil topganligi yoki boshqa tillar – arab, fors kabi – bilan sinonimik qator hosil qilganligi ijodkor tomonidan so'z tanlashdagi o'ziga xos mahoratdan dalolatdir.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, Bobur turkiy til dunyosida o'ziga xos ovozga, ifoda yo'siniga ega ijodkor hisoblanadi. U tomonidan yaratilgan asarlar badiiy qiymati, tarixiy asoslanganligi, ilmiy haqiqati tufayli kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Bobur ijodidagi mavjud lingvistik unsurlar esa uning tilshunoslar tomonidan ilmiy tadqiq manbai sifatida o'rganilishiga zamin yaratadi. Bizning ushbu maqolamizda ham bevosita Bobur ijodida ko'zga tashlanuvchi sinonimlar hamda ularning til tahlili borasidagi fikrlar tahlilga tortilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bobur asarlarida qo'llangan sinonimlar borasida qator tahliliy manbalar mavjud bo'lib, ulardan biri M. Olimovning "Boburnoma"da qo'llangan sinonimlar lug'ati (lug'aviy birliklar ma'nodoshligi) nomli asaridir. Ushbu asarda "Boburnoma"dagi mavjud ma'nodosh so'zlar tizimli ravishda tadqiq etilgan. Ayrim o'rinlarda esa tanlangan sinonimlarning batafsil izohi muallif tomonidan yetarli darajada izohlangan. Asarda keltirilgan sinonimlar xususida olim shunday fikrlarni ilgari surgan: "*Tabiiyki, Boburnoma*"da *ba'zi bir sinonimik qatorga mansub so'zlarning barchasini, ba'zam esa bir qismini uchratamiz. Demak, ba'zan bir sinonimik qatorga mansub so'zlarning barchasini qo'llash uchun zarurat tug'ilmagan... "Boburnoma"da tilning sinonimik boyligini ko'z-ko'z etish bosh maqsad qilib qo'yilgan emas. Bobur o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun bu boylikdan vosita sifatida foydalangan¹...*" Demak, asarlarida qo'llangan sinonimlar tizilmasidan ko'zlangan maqsad tarixiy voqeliklar jamlanmasini o'quvchilarga o'z holicha yetkazish, voqealar tuzilmasiga putur yetkazmaslik hamda tanlangan so'zliklarning ushbu voqealarni aks ettirishdagi ahamiyatini ifodalashdan iboratdir.

F. Azizovning "Boburnoma" da qo'llanilgan arabcha leksik sinonimlar xususiyati" maqolasi ham asardagi sinonimlar tadqiqini amalga oshirishda yana bir muhim amaliy qadam bo'ldi². Keltirilgan maqolada muallif tomonidan aynan arab tilidagi leksik birliklardan tashkil topgan so'zliklar tanlanib, ularning izohi turli manbalar asosida izohlangan. Umuman, Boburning yozuvchilik mahoratini arabcha leksik sinonimlar yordamida ochib berish orqali muallif asar voqeliklari tilining ilmiy xususiyatlarini saqlab qolishga erishganligi maqolanavis fikrlarida yaqqol namoyon bo'lgan.

Biroq shuni qayd etish lozimki, Boburning "Boburnoma" asaridan boshqa janrdagi asarlarida mavjud sinonimik tuzilmalar o'zbek tilshunosligida monografik planda tadqiq etilmagan.

METOD VA METODOLOGIYA

¹ Olimov M. "Boburnoma"da qo'llangan sinonimlar lug'ati. – Toshkent: Fan, 2004

² <https://researchedu.org/index.php/ict/article/view/2922/3445>



Ushbu maqolani yozishda qiyosiy-tarixiy, tasnifiy, tavsifiy, komponent tahlil metodlardan foydalanildi hamda ushbu metodlar maqola mazmunining samaradorligini ta'minlashga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Bobur asarlari tili XV-XVI asrda qo'llangan davr tiliga xos bo'lib, muallif tomonidan foydalanilgan har bir leksik sinonimlar ijodkorning badiiy uslubiyati, so'z qo'llashdagi mahorati, ijodkorona qobiliyatidan dalolat beradi. Sinonimlar ifodaviy uslubi davr tili va ijodkor iste'dodining umumlashmasi natijasi o'laroq namoyon bo'lgan. Xususan, buni Boburning quyidagi g'azali orqali anglashimiz mumkin:

Evrulur boshingg'au gohi yuzungga yuz qo'yar,

Bu jihattin ot emish gulpechu gah gulzor anga.

Bu chamandur sahnikim, bo'lgay gunafsha sarbasar,

Tegrasi gulzordurkim, bo'lmagan bir xor anga³.

Boburning "Anga" radifli g'azalidan olingan yuqoridagi parchada gulzor va chaman leksemalari o'zaro sinonimik qatorni hosil qilgan. Keltirilgan ikki ifoda ham morfologik jihatdan ot so'z turkumiga mansub bo'lib, ularning kelib chiqish etimologiyasi bir tilga, ya'ni fors tiliga oiddir. Chaman so'zining kelib chiqish tarixi haqida Sh. Rahmatullayev shunday deydi: "*Bu ot PPCda [chämän] shaklida keltirilib, 'maysazor' ma'nosini (166) anglatishi, TжPCda chaman shaklida keltirilib, yuqoridagi ma'nodan tashkari, 'gulzor' ma'nosini ham anglatishi (436) aytilgan; o'zbek tiliga tojik tilidan 'gulzor' ma'nosini bilan olingan (O'TIL, II, 352)*⁴". Gulzor etimoni esa quyidagicha izohlangan: "*Bu ot tojik tilida gul I otiga (q.) 'mo'l' ma'nosini ifodalaydigan -zor qo'shimchasini (TжPC, 542) qo'shib hosil qilingan bo'lib, 'gul ko'p joy' ma'nosini anglatadi (O'TIL, 1,197)*⁵". Keltirilgan misralardagi chaman va gulzor sinonimiyasi so'z takrorining oldini olish maqsadida emas, balki ma'noni kuchaytirish uchun qo'llangan.

"Borida" radifli g'azalida ham sinonimlarning o'ziga xos shakllariga guvoh bo'lamiz:

Bizdin oyru doim el birla icharsen bodani,

Bizni ham gohi sog'in shurbi mudoming birla⁶.

Ya'ni ey yor, bodani doim bizdan ayro, bizsiz icharsanki el birla, bizni ham ba'zan istaki, mudomi sharobing birla. Keltirilgan satrlarda boda va shurbi mudom butunliklari ma'nodosh so'zlar qatorini hosil qilgan. Biroq shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tanlangan ikki so'zlik asar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanishi bilan farq qiladi. Aslida, boda va shurb so'zlari o'zaro ma'nodosh bo'lib, shurb so'zining mudom leksemasi bilan birgalikda qo'llanishi uning ko'chma ma'nosini hosil qilishda asosiy rol o'ynagan. Shurbi mudom anglatgan ma'no esa "doimiy oshiqlikka duchor bo'lish, mudom oshiqlik masti bilan bo'lish" demakdir. Birinchi misrada qo'llangan boda va ikkinchi misradan o'rin olgan shurbi mudom birikmasi juz'iy sinonimiya sifatida g'azal ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Bobur ruboiyotlarida ham sinonim so'zlar o'rin olgan:

Ey kim, mujda berding ul jonondin,

³ H. Muhammadxo'ja o'g'li. Bobur. Nazm durdonalari. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 13.

⁴ [chaman - Vikilug'at](#)

⁵ [gulzor - Vikilug'at](#)

⁶ H. Muhammadxo'ja o'g'li. Ko'rsatilgan asar. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 15.



Qilding meni ozod g'ami hijrondin.
Bu mujdani ne nav' sifat qilg'aymen,
Go'yoki xabar berding o'lukka jondin⁷.

Keltirilgan ruboiyda mujda va xabar so'zlari o'zaro ma'nodosh hisoblanadi. Ushbu so'zlarning kelib chiqish tarixi ikki tilga borib taqaladi: mujda – forsa, xabar – arabcha. Mujda leksemasining etimologik xususiyati quyidagicha: “Bu ot PPCda [mojde] shaklida (487), TjPCda mujda shaklida (237) keltirilgan; har ikkisida j harfi sirg'aluvchi tovushni ko'rsatish uchun yozilgan; o'zbek tiliga tojikcha shakli olingan bo'lib, 'xushxabar' ma'nosini anglatadi (O'TIL, I, 476). Bu ot hozirgi o'zbek tilida deyarli ishlatilmaydi⁸”. Xabar esa arabcha “axbor” so'zining birlik shakli hisoblanib, “darak”, “ma'lumot” degan ma'noni ifoda etadi. Demak, yuqorida keltirilgan satrda ikki tildan olingan o'zlashgan so'zlarning o'zaro ma'nodoshlik hodisasi yuzaga kelmoqda.

Ishvang bila, g'amzangni-yu nozingnimu dey?
Javrung bila so'zungni gudozingnimu dey?
So'zung, qilig'ing, navozishingmu etay?
Ovozu usulingni-yu sozingnimu dey⁹?

Yuqoridagi satrlarda ishva ~ g'amza ~ noz birliklari o'zaro sinonimlik hosil qilgan. Keltirilgan so'zlar ma'nodosh hisoblansa-da, ular orasida qisman ma'no nozikliklari mavjud. Buni ushbu so'zlarning etimologiyasi hamda semantikasini ochib bergan holda tahlil qilamiz:

1-jadval.

Ishva ~ g'amza ~ noz so'zlarining komponent tahlili

T/r	So'z	Qaysi tildan o'zlashgan	Etimologik ma'nosi	Lug'aviy ma'nosi
1	Ishva	Arabcha	Kechasi (ko'zi) yaxshi ko'rmaslik; nozli, maftun etuvchi harakat ¹⁰	Yuz, ko'z, qosh jilvasi; noz, ado¹¹
2	G'amza	Arabcha	Noz-karashma; nozli, qichikli ko'z qisish, boqish ¹²	Noz va dilbarona ishva bilan kiprik qoqib, ko'z suzib qarash; noz-karashma¹³
3	Noz	Forsa	Tannozlik, karashma, istig'no; huzur, maza; kekkayish; injiqlik; muloyimlik ¹⁴	Tannoz ayollarga xos serish va harakat,

⁷ H. Muhammadxo'ja o'g'li. Ko'rsatilgan asar. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 100.

⁸ [mujda - Vikilug'at](#)

⁹ H. Muhammadxo'ja o'g'li. Ko'rsatilgan asar. – Toshkent: Sharq, 1996. – B.

¹⁰ [ishva - Vikilug'at](#)

¹¹ [ishva — Izoh.uz — O'zbek tilining izohli lug'ati](#)

¹² [g'amza - Vikilug'at](#)

¹³ [g'amza — Izoh.uz — O'zbek tilining izohli lug'ati](#)

¹⁴ [noz - Vikilug'at](#)



				qiliq; ishva, karashma¹⁵
--	--	--	--	--

Yuqorida keltirilgan birliklar o'zaro sinonim sanalsa ham, ular orasida qisman ma'no nozikliklari mavjud (harakatga asoslangan). Ishva qilish jarayonida yuz, qosh, ko'z harakatlarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. G'amza esa kiprik va ko'zning harakati natijasida hosil bo'ladi. Noz qilishda esa ko'z asosiy rol o'ynaydi. Demak, ushbu so'zlar ma'nodoshlik qatorini hosil qilsa-da, ularning komponent tahlilini amalga oshirish orqali ular o'rtasidagi ma'noviy nozikliklarni farqlash mumkin.

Boburning shoh asari hisoblangan "Boburnoma"da ham sinonim so'zlar uchraydi. Ushbu sinonim birliklar asarda qaysi tilda aks etishiga ko'ra ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Faqatgina turkiy so'zlardan iborat sinonimlar.
2. O'zlashma so'zlar asosida shakllantirilgan sinonimlar.

Faqatgina turkiy tillardagi mavjud so'zlardan hosil qilingan sinonimik birliklar "qaysilari turli lahja va shevalar boyligining qo'shilishi natijasida, qaysilari qadimgi turkiy va eski o'zbek tillari boyligining uyg'unlashuvi natijasida, qaysilari yana boshqa yo'llar bilan paydo bo'lganligi¹⁶" ularning qay yo'sinda paydo bo'lishining tarixiy asoslari hisoblanadi.

Ikkinchi guruhga oid birliklar esa bevosita millatlaro madaniyatning o'zaro munosabati asosida yuzaga kelgan. Bu sinonim qatorlarining tashkil topishida arab, fors-tojik hamda turkiy tillar asosiy rol o'ynagan. Bu uch tilning o'zaro aloqasi tildagi ma'nodosh so'zlarning-da ichki ma'no farqlanishlarini ochib berishga xizmat qilgan.

"Boburnoma" asarida qo'llangan sinonim so'zlarning tadqiqi asar leksikasi bilan tanishish imkonini berishi bilan birgalikda o'sha davr tiliga xos madaniy, milliy elementlarni o'rganish uchun zamin yaratadi. "Boburnoma"da qo'llangan ma'nodosh tuzilmalardan biri **amrad ~ norasida** sinonimlari hisoblanib, ularning ikkisi ham arab tilidan o'zlashgan. Amrad leksemasining lug'aviy istilohi "yosh, voyaga yetmagan" degan ma'noni anglatib, asarda quyidagi jumla tarkibidan o'rin olgan: "Yana bir bukim, shahri va bozori, balki turk va sipohining amrad o'g'lonlari chuhra qilur qo'rqunchidin uydin chiqmas edilar¹⁷".

Norasida so'zining etimologiyasi esa quyidagichadir: "*Bu sifat tojik tilida no- inkor old ko'shimchasini (TjPC, 208) 'etsh-' ma'nosini anglatadigan tojikcha rayeidan fe'lining rasida o'tgan zamon sifatdoshi shakliga (TjPC, 321) qo'shib hosil qilingan bo'lib, 'badog'at yoshiga yetmagan' ma'nosini anglatadi (O'TIL, I, 510). Bu sifat o'zbek so'zlashuv tilida norasta shaklida ham aytiladi¹⁸*". "O'zbeklar xonni Xo'jandta shahid qilg'onda, ani va yana andoq necha norasidani zoyi' qildilar" jumlasida ishtirok etgan norasida so'zi va amrad birligi sinonim tanlanmalar sanaladi. Shuni ham qayd etish kerakki, norasida so'zi hozirgi o'zbek tilida ham saqlanib qolgan, amrad birligi esa iste'molda qo'llanmaydi.

Asar/osor ~ alomat ~ nishon birliklari ham "Boburnoma"ga xos sinonimlar hisoblanib, ulardan asar/osor, alomat so'zlari arabiy o'zlashma hisoblansa, nishon forsiy so'z sanaladi. Hozirgi o'zbek tilida aynan ushbu birliklar mushtaraklik xususiyatiga ega, ammo bugungi kunda ularning semantik tabiatida ma'no kengayish hodisasi yuz bergan. "Mundoq xonzodadin

¹⁵ noz — Izoh.uz — O'zbek tilining izohli lug'ati

¹⁶ Olimov M. "Boburnoma"da qo'llangan sinonimlar lug'ati. — Toshkent: Fan, 2004. — B. 9.

¹⁷ Bobur. Boburnoma.

¹⁸ norasida - Vikilug'at



yetti-sekkiz yilda bir Muhammad Zamon mirzodin o'zga osor va alomat qolmadi¹⁹ tarzida "Boburnoma"da qo'llangan osor va alomat so'zlarining ma'no kengayish hodisasini quyida ko'rib chiqamiz:

1. Biror narsadan qolgan yoki undan darak beruvchi belgi.
2. Kishi yoki narsa holati, faoliyatini o'zgartiruvchi tashqi omil; ta'sir.
3. Ijodiy mehnat mahsuli²⁰.

Ko'rinib turibdiki, belgi, nishon semasidan tashqari uning holat, ta'sir hamda ijodiy ish ma'nolari ma'no kengayish hodisasi asosida yuzaga kelgan. Alomat so'zida ham aynan shu hodisa mavjud:

1. "Shartli ravishda qabul qilingan yoki qo'yilgan belgi, ishora.
2. Biror voqea, hodisa, vaziyat, holat va shu kabilardan darak beruvchi belgi, nishona.
3. Ramz, simvol, nishon, emblema.
4. Ijobiy xislatlarga ega bo'lgan, juda ajoyib, olijanob.
5. Kishini hayratda qoldiradigan, ajablantiradigan; ajib²¹.

Alomat so'zligiga berilgan maqolalardan 1-, 2- hamda 3-si o'zaro bog'liqlikka ega hamda ular o'zida polisemantizm hodisasini yuzaga keltirgan. 5-ma'noda esa aynan shakldoshlik hodisasi mavjud.

Nishon leksemasi asarda quyidagi jumla tarkibida ishtirok etgan: "Xonaqohning gunbazi bisyor ulug' gunbazdur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar²²". Nishon so'zi yuqorida keltirilgan sinonimik qatorning davomi sanaladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da uning quyidagi semalari aks etgan:

- "1. Ataylab qo'yilgan yoki tabiiy belgi; alomat.
2. Biror narsaning izi, asari,
3. Biror narsadan darak yoki dalolat beruvchi belgi.
4. O'q uzish uchun mo'ljalga olingan (qo'yilgan) narsa; qora.
5. Biror gap qaratilgan obyekt; biror gapdan ko'zlangan maqsad; mo'ljal.
6. Orden; medal.
7. Nishon (erkaklar ismi)²³.

Demak, keltirilgan sinonimik so'zlardan barchasi hozirgi o'zbek tilida ham saqlanib qolgan hamda ularda semantik kengayish yuz bergan.

"Boburnoma"da qo'llangan sinonimik qatorlardan yana biri bu **bek ~ amir/mir/umaro ~ no'yon** leksemalaridir. Keltirilgan so'zlar uch tilga daxldor, ya'ni bek turkcha, amir/mir/umaro arabcha hamda no'yon mo'g'ulcha o'zlashma hisoblanadi. Ushbu birliklar asarda quyidagicha ishtirok etgan:

- I. Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudikim Hirida nash'u namo topibtur, bu til biladur²⁴.

¹⁹ Bobur. Boburnoma // www.ziyouz.com

²⁰ asar — Izoh.uz — O'zbek tilining izohli lug'ati

²¹ alomat - Wikilug.at

²² Bobur. Boburnoma // www.ziyouz.com

²³ nishon — Izoh.uz — O'zbek tilining izohli lug'ati

²⁴ Bobur. Boburnoma // www.ziyouz.com



II. Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar²⁵.

III. Umarosi: Jonibek do'ldoy edi, Sulton Malik Koshg'ariyning inisi edi²⁶.

Amir, mir, umaro so'zlari asosi bir so'z hisoblanib, amir va mir birlik shaklini, umaro esa ko'plik shaklini istifoda etadi. No'yon leksemasi esa "Boburnoma"dagi onomastik birlik tarkibidan o'rin olgan – No'yon Ko'kaldosh.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Bobur asarlarida qo'llangan sinonimlar o'zaro farqli xususiyatlari ular anglatgan ma'no, o'zlashgan tilga ko'ra farq qiladi. Ma'nodosh so'zlarning ayrimlarida hatto ma'no nozikliklari ham ko'zga tashlanadi. Umuman olganda, Bobur tomonidan ishlatilgan ma'nodosh birliklar shoirning so'z tanlashga naqadar ustamonlik bilan yondashganligidan dalolat beradi.

References:

1. Bobur. Boburnoma // www.ziyouz.com
2. Muhammadxo'ja o'g'li H. Bobur. Nazm durdonalari. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 13.
3. Olimov M. "Boburnoma"da qo'llangan sinonimlar lug'ati. – Toshkent: Fan, 2004.
4. www.izoh.uz
5. <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2922/3445>
6. www.wiktionary.uz
7. www.google.com

²⁵ Bobur. Boburnoma // www.ziyouz.com

²⁶ Bobur. Boburnoma // www.ziyouz.com